Navoiy davlat pedagogika instituti
Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi
Yo'ldosheva Madinabonu
Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD) Ro'ziyeva D.M.

OLIY TA'LIM SOHASIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Annotasiya : Ushbu maqolada oliy ta'lim sohasidagi o'zgarishlar – O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy qismi ekanligini, 2030- yilgacha aynan oliy ta'lim sohasini rivojlantirish kansepsiyasi ishlab chiqarilganligi va yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish aynan 2030-yilgacha 60-70% yetishiga olib kelinishi,bugungi kunda faoliyat yuritayotgan oliya ta'lim muassasalari soni, bakalavriat va magistratura yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalarining oshirilishi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan va hayotga tadbiq qilinayotgan islohotlar va takliflar to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar : insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili, 2030-yilga mo'ljallangan Konsepsiya, kvotalar, IELTS, CEFR,Tyutr lavozimi.

Annotation : This article shows that changes in the field of higher education are an integral part of the reforms being implemented in Uzbekistan, that a concept for the development of the field of higher education has been developed until 2030, and that the enrollment of young people in higher education will be 60-70% until 2030,information about the number of higher education institutions operating today, the increase of admission quotas for bachelor's and master's degrees, reforms and proposals accepted and implemented by President Shavkat Mirziyoyev.

Keywords : year of focus on people and quality education, Concept for 2030, quotas, IELTS, CEFR, Tutor position.

Bugun Yangi O'zbekistonning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan.Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosiy bo'g'ini hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar kun sayin ortib bormoqda.

Muhtaram Prezedentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu-ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq»**[1].**

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to’rtinchi ustuvor yo’nalishi aynan ta'lim sohasiga qaratilgani mamlakatimizni rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqish,yuqori salohiyatli kadrlar avlodini shakllantirish,ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy etishga xizmat qiladi. Aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida ham 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»deb e'lon qilinishi ta'lim sohasining yanada yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda **[2].**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham xususiy maktablar tizimini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilda 60-70% yetkazish asosiy vazifa etib belgilandi **[3;226].**

Bu borada, Prezidentimizning 2021-yil 16-iyun oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ham Oliy ta’lim sohasidagi dastlabki

islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilib,jumladan, oxirgi 3 yilda oliy ta’lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetganligi, qabul o‘rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshganligi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanganligi va xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilganligi,professor-o‘qituvchilarning maoshi o‘rtacha 3,5 baravarga oshirilganligi alohida e'tirof sifatida sanab o’tildi**[4].**

Bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo’lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so’nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasi,17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasining filiali tashkil etildi **[5].** So’nggi 6 yil ichida oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 199 taga yetdi.Oliy ta'lim muassasalari ko’paydi**[6].**

Maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yil 9%dan 2020-yil 25%, 2022-yilga kelib esa 38% gacha oshirildi **[7].** Natijada Oliy ta'limga bo’lgan ehtiyoj asosida muassasalari soni, qo’shimcha mutaxasasislik va ta'lim yo’nalishlari ko’paytirildi. So’nggi 3 yil ichida oliy ta'limda tahsil olish istagi paydo bo’lgan abituryentlar soni keskin oshdi.

2022-yilga kelib,oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan abituryentlar soni 1 mln.dan oshdi. Shuningdek, ularning sonidan kelib chiqqan holda qabul kvotalari soni 2,5 barobarga ko’paytirildi. Xususan, bakalavriat bosqichi uchun kvotalar 58000 tadan 223000 taga, magistratura bosqichi uchun kvotalar 5000 tadan 16000 taga oshirildi **[8].** Abituryentlar sonining ko’payganligi va aholi fikrining inobatga olgan holda 2019-2020 o’quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim shakli joriy qo’yildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo’nalishlari va mutaxasasislari ishtirokida klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo’nalishi va 582 ta magistratura mutaxasasisligi kiritildi **[9].**So'nggi besh yilda oliy ta'lim sohasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan umumiy islohotlarning harakatga keltiruvchi lokomotivi vazifasini bajarib kelmoqda.Negaki,bugunda kunda islohotlarning va qarorlarning tub zamini yoshlar va ularning ta'lim-tarbiyasi bilan bog’liq.

Xususan,O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng

qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha»2018-yil 5-iyun PQ-3775-sonli farmoniga ko’ra 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab:

A. alohida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish;

B. oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

C. Ilg‘or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo‘lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin **[10].**

Jumladan, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab:

A. oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun to‘lov-kontrakt miqdorini o‘quv yili davomida teng ulushlarda to‘rtga bo‘lib to‘lash huquqi berildi.

2021/2022 o‘quv yilidan esa:

B. mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha oliy ta’lim muassasalarida koronavirus infeksiyasiga qarshi ixtiyoriy ravishda emlangan talabalarga – belgilangan to‘lov-kontrakt miqdorlariga nisbatan 10 foiz chegirma bonusi berildi.

C. bazaviy to‘lov-kontrakt asosida davlat oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta’lim muassasalari hisobidan o‘qitish tartibi joriy etildi.

D. “Temir daftar»ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan farzandlariga mazkur o‘quv yilida birinchi o‘quv yili uchun bazaviy to‘lov-kontraktning to‘liq summasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berildi.

E. Yilida 97 ta OTMda kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida tahsil olyotgan 1-3 kurs 402 ming 602 nafar talabalar uchun 2 ming 806 ta shtat birligida “Tyutor» lavozimi joriy etilib,

barchasiga oliy ma’lumotli mutaxassislar ishga qabul qilindi.Natijada talaba bilan ishlash samarasi 2 barobarga ortgan holda har bir oliy ta’lim muassasasida talabalarning axloqiy tarbiyasi bilan doimiy ishlaydigan vakil paydo bo‘ldi**[11].**

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Davlat Oliy ta'lim muassasalariga o’qishga qabul qilish jarayonlari to’g’risidagi» 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-sonli farmoniga ko’ra 2022-2023 o’quv yilidan boshlab:

A. Davlat oliy ta’lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta’lim shakli joriy etiladi;

B. Davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga qabul abituriyentning bakalavriat diplom bali o‘rtacha ko‘rsatkichi hamda xorijiy tilni bilish darajasi bo‘yicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikat bali asosida, ballar ketma-ketligiga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi hamda qo‘shimcha imtihon o‘tkazilmaydi;

C. Davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga qabul bir yilda ikki marta — avgust va yanvar oylarida tashkil etiladi;

D. Davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga qo‘shimcha qabul parametrlari asosida o‘qishga qabul qilingan abituriyentlarning to‘lov-kontrakt summasi bir talabaga to‘g‘ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: ”Bizning bugungi kundagi ezgu maqsadimiz: Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimdadir”**[12].**Albatta, qaysiki davlat eng avallo yoshlarni qo’llab quvvatlasa,bilim va yangiliklariga investitsiya kiritsa, texnologiyalar rivojlansa, yetuk kadrlar tayyorlash malakasi oshirilsa, dars jarayonlari zamonaviy texnologiyalar asosida yevropa andozasida tashkil etilsa o’sha davlat ta’lim sohasida eng yuqori marralarni egallagaydi.Biz yoshlar bu imkoniyat va islohotlardan unumli foydalangan holda davlat rivoji uchun mahkam bel bog’lamog’imiz lozim. O’z ona tilimizni mukammal bilgan holda, chet tillarini o’rganishimiz va xorijiy davlatlarda bilimimizni va malakamizni oshirishimiz bugungi kundagi asosiy va ezgu maqsadimizdir. Chunki ilm olish yo’lini o’ziga qurol qilib olgan, kelajagi buyuk bo’lgan O’zbekiston yoshlarini hech kim va hech qachon yenga

olmaydi. Zero, O’zbekiston kelajagi buyuk davlatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1.https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri poydevorini-yaratadi. Xalq so’zi gazetasi

2.Shavkat Mirziyoyev.2019.18.10.PF-5847-sonli farmoni

3.Yangi O’zbekiston strategiyasi.Shavkat Mirziyoyev.Toshkent, 2021.

4.https://yuz.uz/uz/news/oliy-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi.2021-yil 16-iyun videoselektr yig’ilishidan.

5.Shavkat Mirziyoyev.2019.18.10.PF-5847-sonli farmoni

6.Oliy va o’rta maxsus ta'lim vazirligi yangiliklari.https://t.me/edu.uz

7.Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi.2022.

8.Oliy va o’rta maxsus ta'lim vazirligi yangiliklari.https://t.me/edu.uz

9.Shavkat Mirziyoyev.2019.18.10.PF-5847-sonli farmoni

10.Shavkat Mirziyoyev.2018-yil 5-iyun PQ-3775-sonli farmoni

11.https://t.me/uzabt

12.Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi.2022.